



SO'FI OLLOYORNING "SABOT UL-OJIZIN" ASARI TAHLILI

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti

o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Mo'sinova Qumriniso Ilhomjon qizi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asari mazmuni, undagi axloqiy-tasavvufiy g'oyalar, komil inson konsepsiyasi va tarbiyaviy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Asarda sabr, tavakkal, qanoat, nafsni poklash, ilmni fazilati singari mafkuraviy tushunchalarning ifodalanishi sharhlanib, uning o'zbek ma'naviy merosidagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot asarning badiiy xususiyatlari va ma'rifiy qiymatini ochib berishga qaratilgan.

KALIT SO'ZLAR: So'fi Olloyor, Sabot ul-ojizin, tasavvuf, axloq, sabr, ma'rifat, komil inson

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyotining axloqiy-ma'rifiy ruhdagi dostonlar alohida o'rin tutadi. Shunday durdonalardan biri -XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida yashagan mashhur mutasavvif shoir So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asaridir. Bu dostonda o'z davrida ham, keyingi asrlarda ham keng o'qilgan, madrasalarda ta'lim vositasi bo'lib xizmat qilgan, xalqning ma'naviy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etgan. Asar nomining o'zi "ojiz bandalarning saboti" yani insonni haqiqatga boshlovchi matonat va sabr manbai degan ma'noni beradi. Dostonning asosiy vazifasi-muriarni, o'quvchilarni ham diniy ham axloqiy yetuklikka chorlashdan iborat. Shu bois "Sabot ul-ojizin" nafaqat adabiy, balki ibratomuz ma'rifiy qo'llanma sifatida ham qadrlanadi.



Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishi. Sabr va tavakkal g'oyasi .Asarning asosiy markazida sabr fazilati turadi. So'fi Olloyorga ko'ra, insonning barcha imtihonlari sabr bilan yangiladi, sabrsiz kishi man ma'naviy, man ijtimoiy mukamalikka erishadi. Shoir sabrni nafsni jilovlashning eng oliy bosqichi deb ko'rsatadi va tavakkal bilan uzviy bog'laydi. Tavakkal -banda o'z harakatini qilgan holda natijani Allohga topshirishi, bu esa ruhiy osoyishtalik keltiradi. Yana biri nafs tarbiyasi va axloqiy poklik. Asarda insonning eng katta dushmani -nafs ekani bir necha marotaba ta'kidlanadi. Shoir nafsga ergashgan kishi adashishi, adolatdan uzoqlashishi, ilohiy, ma'rifatga yetolmasligini uqtiradi. Nafsni yengish uchun ilm, zikr, sabr, va toat-ibodat zarurligi bayoni qilinadi. Ilmning fazilati "Sabot ul- ojizin"da -ma'rifiy yo'ling asosiy quroli sifatida talqin etiladi. So'fi Olloyor ilmni faqatgina matn yodlash emas, balki insonni o'zlikka eltuvchi nur deb biladi. U ilm bilan amalda teng qo'yib, faqat nazariy bilim bilan cheklanishi tanqid qiladi. Komil inson idealning talqini.

Asarda tasavvufdagi komil inson konsepsiyasi yorqin ko'rinadi. Komil inson- sabrli, halol, adolatli, nafsni yengan boshqalarga mehribon, ilm bilan amal qiluvchi xalqparvar zotdir. Dostonda o'quvchining bevosita murojaatlar, ibratli hikoyatlar, hayotiy misollar orqali o'qitish uslubida qurilgan. Bu jihat uni nafaqat adabiy asar, balki ma'rifiy qo'llanma sifatida ahamiyatli qiladi. Asar tiling sodda va xalqona bo'lishi dostonining keng omma orasida oson tarqalishiga sabab bo'lgan.

Asarning badiiy xususiyatli:

1. sodda va ravon uslubligi.

So'fi Olloyor o'z fikrlarini murakkab tasvirlar bilan emas, balki sodda, ravon, xalqona tilda ifodalaydi. Bu esa asarning o'qubchikariga yaqinlashtiriladi.

2. Tasavvufiy ramzlar.



Assrda shariat,tariqat, ma'rifat, haqiqat bosqichlari bevosita yoki Ramziy ma'noda ochib beriladi Nafs dunyo ,yolg'on, shon-shuhrat kabi tushunchalar Ramziy ma'nida ishlatialdi.

3.O'git va omadlar ustuvorligi.

Asar pandnoma ruhida yozilgan bo'lib, har bobda o'quvchini yaxshi inson bo'lishga da'vat qiluvchi fikrlar jamlangan.Bular xalq og'zaki ijodi an'analariga hamohangdir.

XULOSA

"Sabot ul-ojizin" -o'zbek tasavvuf adabiyotining eng nodir namunalaridam biri bo'lib,asarlar davomida ma'naviy tarbiya manbai sifatida qo'llanib kelgan.So'fi Olloyor asarida insonning botiniy poklanishi,sabr-tavakkal,ilm-ma'rifatga intilishi, nafsni jilovlashi.kabi eng muhim axloqiy fazilatlarni targ'ib etadi.Dostonning sodda til,boy.ma'naviy g'oyalari unga umumxalq kitobiga aylanish imkonini bergan.Bugungi kunda ham asar yoshlar tarbiyasida, ma'naviyatini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin.-Toahkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Qoshjonov M. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent: Universitet,2005.
3. Hasanov B.Tasavvuf va o'zbek adabiyoti.- Toshkent:Akademnashr,2012.
4. Boltaev H. O'zbek adabiy merosi manbalari.-Toshkent:Fan,1999.
5. Jo'rayev O. Mumtoz adabiyot janrlari va ularning talqini.- Toshkent:Ma'naviyati,2010.
6. Fitrat A. Adabiyot qoidalari,-Toshkent: Yangi asr avlodi,2010.

